

7/1-6-son

14-yanvar 2026-yil.

“TASDIQLAYMAN”

Iqtisodiyot va moliya vazirining
birinchi o‘rinbosari



I. Norqulov

2026-yil _____ -yanvar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-270-sonli Farmoni ijrosini tashkil etish bo‘yicha

NAZORAT REJASI

T/r	Farmon bandining mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Mas’ul ijrochilar
Farmon bo‘yicha				
1.	4-band. Belgilansinki, davlat organlari va tashkilotlaridagi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalarining faoliyati Agentlik bilan uzviy hamkorlikda tashkil etiladi. (a) korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalarining o‘z zimmasiga yuklatilgan	Ijro uchun qabul qilinsin.		

T/r	Farmon bandining mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
	<p>vazifalar va funksiyalarni amalga oshirishga oid faoliyati Agentlik tomonidan muvofiqlashtiriladi;</p> <p>(b) korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari va ular xodimlarining vazifalari, funksiyalari va javobgarligi Agentlik bilan kelishilgan holda ish beruvchi tomonidan tasdiqlanadi;</p> <p>(v) korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari xodimlari zimmasiga ularning vazifalari va funksiyalari bilan bog'lik bo'lmagan topshiriqlar yuklatilishiga yo'l qo'yilmaydi;</p> <p>(g) korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalarining rahbar va xodimlari faoliyatiga samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) qo'llanilmaydi, bunda:</p> <p>samaradorlik ko'rsatkichlaridan (KPI) kelib chiqadigan ustamalar tegishli lavozim uchun belgilangan maksimal miqdorda tatbiq etiladi;</p> <p>ustamalar miqdorini pasaytirish masalasi Agentlik roziligi bilan hal etiladi;</p> <p>(d) korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalarining xodimlarini intizomiy javobgarlikka tortish Agentlik bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi;</p> <p>(j) korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari xodimlari davlat organlari va tashkilotlarining o'z mablag'lari hisobidan Agentlik tomonidan tasdiqlanadigan reja-jadvalga asosan maxsus o'quv kurslarida o'qitiladi.</p>		<p>Doimiy</p> <p>Doimiy</p> <p>Doimiy</p> <p>Doimiy</p>	<p>O. Samadov S. Axmedov</p> <p>S. Hamroyev</p> <p>S. Axmedov</p> <p>S. Axmedov O. Jo'rayev O. Samadov</p>
2.	5-band.			

T/r	Farmon bandining mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
	<p>Belgilansinki, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalarining mas'ul lavozimlariga nisbatan ish tajribasi va kasbiy kompetensiyasiga doir quyidagi minimal talablar joriy etiladi:</p> <p>(a) yurisprudensiya, iqtisodiyot, moliya, soliq, audit, tizimli tahlil, menejment yoki axborot texnologiyalari mutaxassisliklari bo'yicha oliy ma'lumot;</p> <p>(b) korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmasi lavozimi uchun mutaxassisligi bo'yicha kamida 4 yillik, boshqaruv xodimlari uchun 3 yillik ish staji. Bunda komplayens va korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishidagi ish stajiga ustuvorlik beriladi;</p> <p>(v) korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida maxsus o'quv kurslaridan o'tganlik to'g'risida sertifikatga ega bo'lish. Sertifikatga ega bo'lgan mutaxassislar Agentlikda yuritiladigan korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalariga nomzodlar zaxirasiga kiritiladi.</p>	Ijro uchun qabul qilinsin.	Doimiy	S. Axmedov O. Samadov
3.	<p>8-band.</p> <p>Agentlik amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va ulardagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf qilish yuzasidan davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha mas'ul organ etib belgilansin. Bunda:</p> <p>(a) davlat organlari va tashkilotlari tomonidan amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish natijalari bo'yicha hujjatlar Agentlikka taqdim etiladi;</p>	Ijro uchun qabul qilinsin.	Doimiy	S. Qo'ychiyev O. Samadov

T/r	Farmon bandining mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
	(b) 2027-yildan boshlab Agentlik tahlillar asosida amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazishning davlat organlari uchun majburiy bo'lgan yillik reja-grafigini har yili 1-aprelga qadar tasdiqlaydi va e'lon qiladi;			
Farmonga 1-ilova Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishning sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi bo'yicha				
4.	1-band. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Milliy sertifikatlashtirish menejment tizimini joriy etish.	1. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Milliy sertifikatlashtirish menejment tizimini ishlab chiqish va tasdiqlash choralari ko'rish. 2. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Milliy sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi idoraviy normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash. Bunda quyidagilar nazarda tutiladi: (a) davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini baholash va sertifikatlash tartibi; (b) sertifikatning amal qilishini to'xtatib turish va bekor qilish asoslari hamda tartibi; (v) belgilangan muddatlarda sertifikat olinmaganligi, sertifikat amal qilishi to'xtatib turilganligi va bekor qilinganligi oqibatida davlat organlari yoki tashkilotlari rahbariga tizim joriy etilgunga qadar bo'lgan muddatda barcha rag'batlantirish to'lovlarini to'xtatib turish tartibi.	2026-yil 25-aprel	L. Jo'rayev O. Samadov
5.	5-band. "Raqamli komplayens" dasturiy kompleksini tushirish.	Quyidagilarni nazarda tutuvchi "Raqamli komplayens" axborot dasturiy kompleksini ishga tushirish: (a) Korrupsiyaga qarshi kurashish klasteri ishtirokchilari o'rtasida tezkor ma'lumot almashish;	2026-yil 25-iyun	N. Djurayev S. Nazarov O. Samadov

T/r	Farmon bandining mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
		<p>(b) davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlarini “Raqamli komplayens” axborot dasturiy kompleksi bilan integratsiya qilish orqali Agentlik faoliyatini axborot jihatidan ta'minlash;</p> <p>(v) “Raqamli komplayens” axborot dasturiy kompleksining “E-komplaens” modulini ishga tushirish orqali korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalarini to'liq raqamlashtirish;</p> <p>(g) korrupsiyani oldini olish faoliyatiga quyidagi imkoniyatlarga ega sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish:</p> <p>(i) “Raqamli komplayens” axborot dasturiy kompleksi va boshqa axborot resurslaridagi ma'lumotlarning tizimli tahlili asosida korrupsiyaviy xavflarni aniqlash, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan yechimlarni ishlab chiqish;</p> <p>(ii) davlat xaridlarida ommaviy ofertaga munosabat bildirishda affillanganlik va manfaatlar to'qnashuvi mavjudligini aniqlash va ishtirokchilarning ishtirokini avtomatik cheklash.</p>		
6.	<p>6-band.</p> <p>Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarni amalga oshirishda korrupsiya xavf-xatarlarining oldini olish.</p>	<p>Quyidagilarni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish:</p> <p>(a) baholash guruhlarining, shu jumladan, baholash jarayoni davomidagi hisobotlarni hamda shartnomalarni tuzish to'g'risidagi qarorlarni qonunchilik talablariga rioya etilganligi va ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda ishonchsizlik yoki soxtalik belgilari mavjudligi nuqtayi nazaridan Agentlik tomonidan tekshirish;</p> <p>(b) qonunbuzilish holatlari yoki qalbakilashtirish belgilari aniqlanganda, tegishli vazirlik va</p>	2026-yil 25-aprel	B. Karimov

T/r	Farmon bandining mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
		<p>idoralarga tender jarayoni yoki shartnomani amalga oshirish (moliyalashtirish)ni to'xtatib turish haqida Agentlik tomonidan taqdimnoma kiritish;</p> <p>(v) tender jarayonini davom ettirish to'g'risidagi qarorlarni Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq qabul qilish.</p>		
7.	<p>7-band.</p> <p>Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibini takomillashtirish.</p>	<p>Quyidagilarni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish:</p> <p>(a) Janubiy Koreyaning "Clean Portal" ("Shaffof portal") platformasining tajribasi asosida "E-Anticor.uz" dasturini takomillashtirish orqali korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tizimini raqamlashtirish;</p> <p>(b) Agentlikni rag'batlantirish masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha vakolatli organ sifatida belgilash;</p> <p>(v) rag'batlantirish tizimini Jamoatchilik nazoratini rivojlantirish jamg'armasi orqali tashkil etish.</p>	2026-yil 25-iyun	L. Jo'rayev
8.	<p>13-band.</p> <p>Investitsiya loyihalari doirasida ajratiladigan mablag'larning maqsadli ishlatilishi jarayonida ochiqlik va oshkoralikni ta'minlash.</p>	<p>Ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda mablag'lar sarflanishida ochiqlikni ta'minlash mexanizmi sifatida mahalla va jamoatchilik faollari ishtirokida Tashabbuskor guruhlarini shakllantirish amaliyotini joriy etish.</p>	2026-yildan boshlab	Sh. Nurullayev A. Maxmudxodjayev
9.	<p>15-band.</p> <p>2025—2027-yillarda davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va rivojlantirish strategiyasi doirasida manzilli choralarni ko'rish.</p>	<p>1. Davlat xaridlari ustidan nazorat qiluvchi idoralarning funksiyalarini va vakolat doirasini aniq belgilash.</p> <p>2. Yagona axborot tizimida xarid qatnashchilari takliflarini baholash hamda davlat xaridlari ustidan</p>	2026-yil 25-dekabr	S. Nazarov N. Djurayev A. Tursunov

T/r	Farmon bandining mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
		<p>nazorat qilishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni joriy qilish.</p> <p>3. Davlat xaridlari ustidan nazorat qilish jarayonlarini muvofiqlashtirish uchun aniqlangan qonunbuzilish holatlari bo'yicha ma'lumot almashinuvini avtomatlashtirish va natijalarni yagona reyestrda qayd etish.</p>		
10.	<p>19-band.</p> <p>Jamoatchilik nazoratini rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini shakllantirishning manbalarini kengaytirish.</p>	<p>Jamoatchilik nazoratini rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalarini, shu jumladan, Agentlik tashabbusi bilan huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga yuborilgan materiallar asosida undiriladigan mablag'lar, shuningdek, Agentlik tomonidan tuzilgan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomalar asosida undiriladigan ma'muriy jarimalar hisobidan kengaytirishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	2026-yil 25-aprel	L. Jo'rayev